

**Jamolova Lubat Ilhomovna**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
2-kurs tayanch doktoranti  
i.l.jamolova@buxdu.uz

## **AHMAD DONISH MA'RIFIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISHNING AMALIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Annotasiya.** Maqolada Buxoroda ta'lim-tarbiya borasidagi pedagogik qarashlar hamda fikrlarning bayoni va jadidchilarning ilm-fan borasidagi tutgan o'rni hamda Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoye" asaridagi hikoyatlardan "O'g'illarimga vasiyatnomasida"gi qisqacha tahlillardan berilgan. Ushbu asar XIX asr ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va falsafiy fikrlar oqimining ulkan ma'naviy merosi sifatida yoshlarni mehnatsevarlikka, ilmi, ma'rifatli bo'lishlikka hamda ular ongida egallangan har bir bilim o'z manfaatlari uchun emas balki, eng avvalo xalq va davlat manfaatlari uchun xizmat qilishligini ilgari surgan..

**Kalit so'zlar:** "Navodir ul-vaqoye", mehnatsevarlik, tarjimon, kasb egallash, oqillarning mehnati, hunarmand, nonvoylar, haq va nohaqlik to'g'risida, davlat amaldorlar, dunyo haqiqati, dunyoviy ilmlar, dunyo boyliklariga bo'lgan havas.

### **ПРАКТИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ УЧЕБНО-ЭТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ АХМАДА ДОНИША**

**Аннотация.** В статье дана характеристика педагогических взглядов и мнений на образование в Бухаре и роль модернистов в науке, а также краткий анализ рассказов Ахмеда Дониша «Наводир уль-вакае» в «Завещании моим сыновьям». "даны. Этот труд, как огромное духовное наследие течения общественно-политической, юридической и философской мысли XIX века, призывает молодых людей быть трудолюбивыми, знающими и просвещенными, а всякое знание, приобретенное в их сознании, - не для их собственных интересов, но в первую очередь для народа и государства. Он выдвинул, что будет служить своим интересам.

**Ключевые слова:** «Навадир уль-Вакае», трудолюбие, переводчик, приобретение профессии, труд интеллектуалов, ремесленников, пекарей, о добре и зле, государственные чиновники, истина мира, мирские науки, жажда мирских богатств.

### **PRACTICAL AND PEDAGOGICAL BASIS OF STUDYING EDUCATIONAL AND ETHICAL VIEWS OF AHMAD DONISH**

**Annotation.** In the article, the description of pedagogical views and opinions on education in Bukhara and the role of modernists in science, as well as a brief analysis of the stories in "Navodir ul-vaqaye" by Ahmed Donish in "Will to my sons" are given. This work, as a huge spiritual legacy of the flow of socio-political, legal and philosophical thoughts of the 19th century, encourages young people to be hardworking, knowledgeable, and enlightened, and every knowledge acquired in their minds is not for their own interests, but first of all for the people and the state. He put forward that he would serve his interests.

**Key words:** "Nawadir ul-Waqaye", hard work, translator, acquiring a profession, the work of intellectuals, artisans, bakers, about right and wrong, state officials, the truth of the world, worldly sciences, lust for worldly wealth.

**Kirish.** Mustaqillik xalqimizning qadimiy tarixini va boy ma'naviy merosini erkin o'rganish hamda undan bimalol foydalanish, bahramand bo'lish imkonini berdi. Buyuk ajdodlarimiz Amur Temur, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlar qatorida jadidchilarimizning davlat, siyosat, va

ijtimoiy hayot boshqaruvi mavzusida ilmiy mushohadalarga boy asarlarni o'rganish imkonini berdi. Nosir o'g'li Ahmad Donish 1827-yilda ilm va ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lmish Buxoroda tug'ildi va ijod qildi. U har tomonlama hayotni, odamlarni, ularning turmushlarini, dunyo barpo etilganini, odamlarning hayot kechirganlarini o'rganadigan, oilaviy hodisalarni tahlil qiluvchi inson bo'lgan.

**Xalq pedagogikasida mutaffakkirlar.** Rivoyatlarga ko'ra, Jaloliddin Rumiyning onasi Mo'mina xotun Balx amiri Rukniddinning qizi bo'lib, nasl nasabi jihatidan Muhammad Payg'ambarga borib taqaladi, ota tomonidan shajarasi esa islom olamining birinchi xalifasi Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi. Ahmad Donishning ham avlodi Abu Bakr Siddiqqa borib taqalishi uning mashhur asari bo'lmish "Navodir ul-vaqoye" asarida keltirilgan. Ahmad Donish yoshligidan she'riyatni yaxshi ko'rar edi. U 9 yoshligida Sa'diy, Jomiy va boshqa shoirlarning she'rlarini yoddan bilardi. Keyinchalik o'zi quyidagilarni yozgan: "She'r yozish yaxshi xususiyat, she'r yozish xususiyatiga ega bo'lgan shaxs katta hurmatga hurmatga loyiq, lekin yozilgan she'r xalq uchun xizmat qilishi kerak" deya fikr bildirgan. Ahmad Donish o'z ustida ishlab bo'sh vaqtlarida kallografiyani (husni xatni) o'rganib olgan. Xattotlik Ahmad Donishga yashash uchun ashyo bilan ta'minlaydigan hunari bo'lgan. Shoir musiqachi, rassom, astronom, tabib ham bo'lgan olim ilmning hech tunganmas daryo ekanligi uning oxiri yo'qligi haqida ibratomuz so'zlar bilan ko'p marotaba aytgan. Ahmad Donish nasihat qilgan: "Yosh avlodga ilm-u fanni o'rgating, chunki ular hayotni yaxshi tomonga o'zgartiradi. Ilm-u fan yer yuzidagi, yer qatlamidagi boyliklarni inson uchun ishlatilishiga, yangi yerlarni ochishda, mamlakatni obod qilishda, xalq hayotini yaxshi tomonga olib borishiga olib keladi. Hayotni davom ettirish uchun kerakli oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, kasblar o'rganish, uylar qurish, olamni o'zgartirish kerak, bu uchun xizmatlaringizni ayamanglar". Ahmad Donish fan va texnika yutuqlarini xalq xizmatida ishlatish, tabiatni o'rganishga yoshlarni chaqirgan. O'z asarlarida yerning shar shaklida ekanligini, planetalarning aylanishini, quyosh va oyning tutilishini, yer qimirlashining sabablarini tushuntirib bergan va ularni yanada yaxshiroq o'rganish kerakligini aytgan. Shundan bilamizki, olimning bunday fikrlari bugungi kun ilm-fani uchun ham dolzarb va albatta o'rganilishi kerak bo'lgan tushunchalar. O'tmishda ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida keltirilgan bu fikrlar bugungi texnika asrimizda nechog'lik muhim o'rin tutganligini bilishimiz mumkin. Har bir o'rganilgan, kashf qilingan yangiliklar albatta inson yashash tarziga, hayot yo'lini yanada olg'a siljishiga yordam bermay qolmaydi. Ahmad Donish Rossiyaning ilm-fanini rivojlanishini chet davlatlar matbuotidan o'qib turib amirlik tuzumi mansabdorlarining ilmu fan rivojlanishiga to'sqinlik qilayotganliklarini tanqid qilardi. Bu o'rinda xotin-qizlarni Russiyaga o'xshab o'qimishli, aqlli va erkaklar bilan teng huquqli bo'lishlarini xohlar edi. Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod qilgan Uvaysiy va Nodirabegimlar butun umri davomida o'zbek ayol qizlarining ilmi bo'lishlari, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishlari haqida so'z yuritardi ekan ayollarning ilmi bo'lmog'i nafaqat o'zlari uchun balki, ulg'aytirayotgan jajji go'daklarining voyaga yetmoqlari uchun ham juda muhimdir. Chunki, ilm-ma'rifatli onagina kelajakda xalq koriga yaraydigan, uning rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha oladigan bir mustahkam qurol yoki buyuk devorni qura oladi. Ahmad Donish matematika, fizika, astronomiya fanlarini targ'ibot qilishni yaxshi ko'rar edi. Yevropa va Rossiyadagi yangiliklarini bilar, temir yo'llarini, paraxodlar va boshqa yangiliklarga qiziqib o'rganib yurardi, Shuningdek vaqt kelib turli davlatlar aholisi do'st bo'lib yashashlarini aytadi. Ma'lumki yurtimiz mustaqillikdan so'ng barcha hamdo'stlik davlatlari bilan keng aloqalar olib bormoqda. Donish Buxoro amirligida vazirliklarni yaratish, bilimi past bo'lgan shaxslarni o'z lavozimlaridan tushirish zarurligini yozadi. Ular o'z mavqelarini bilimli, o'qimishli, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, adolatlikka intiladigan yoshlarga berishlari kerak deydi.

**Asosiy qism.** Ahmad Donish: "Podsho—chashmadir, uning amaldorlari-chashmadan oqadigan ariqchalardir. Agar chashmaning suvi shirin bo'lsa, ariqchalar suvlari ham shirin bo'ladi. Agar chashmada suv achchiq bo'lsa, ariqcha suvlari ham achchiq bo'ladi. Shunday ekan podsho adolatli yuqori malakaga ega bo'lgan shaxs bo'lishi zarur, chunki uning amaldorlari ham adolatli inson bo'lishga intiladilar. Ahmad Donish amirdan talab qiladi: "Har bir lavozim shu lavozimga javob beradigan bilimli shaxsniki bo'lishi kerak. Albatta, har bir shaxs o'z mehnatiga munosib

taqdirlanishi ham zarurdir". Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoye" asaridagi milliy uygʻonish, adolatli boshqaruv, bagʻrikenglik, tenghuquqlikni taʼminlashga undovchi gʻoyalarning zamonaviy demokratik va bagʻrikeng jamiyat yuksalishining hal qiluvchi omili ekanligi sababli erkin fuqarolik jamiyatni rivojlantirish va demokratik qadriyatlar ustuvorligini taʼsis etishda yosh avlodga nisbatan tolerantlik gʻoyalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Islohotlar «Yangi Oʻzbekiston – maktab ostonasidan, taʼlim tarbiya tizimidan boshlanadi» [12] degan gʻoya asosida amalga oshirilishi taʼkidlangan. Buning uchun – yosh avlodga bogʻcha, maktab va oliygohda sifatli taʼlim-tarbiya berish kuchaytiriladi; jismoniy va maʼnaviy sogʻlom, vatanparvar shaxs boʻlib ulgʻayishlari uchun zarur barcha kuch va imkoniyatlar safarbar qilinadi; zamonaviy bilim, tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil hamda mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar sohibi boʻlgan inson sifatida voyaga yetkazish kabi gʻoyalar mamlakat taraqqiyotining poydevori, hech shubhasiz, ilm-fan va innovasiyalar ekanligini koʻrsatadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan "Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yoʻlida jonini fido qilgan jadid bobolarimizning ilmiy-maʼrifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etishi, bu bebaho boylikni faol targʻib etish xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning bugungi tinch va erkin hayot qadrini anglab yetishida muhim oʻrin egallashi bir necha bor taʼkidlangan. Umuman olganda, biz jadidchilik harakati, maʼrifatparvar bobolarimiz bebaho merosini chuqur oʻrganishimiz kerak. Bu maʼnaviy xazinani qancha koʻp oʻrgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda koʻp savollarga toʻgʻri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targʻib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi".

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda roʻy bergan ijtimoiy-siyosiy tuzum, madaniy-maʼrifiy ishlar, mangʻit amirligining olib borgan siyosatlari, rus bosqini haqida mufassal maʼlumot beruvchi maʼrifatparvar shaxslar jumlasida Ahmad Donishning oʻrni katta boʻlgan.

Ahmad Donish oʻz davrining nafaqat tarixnavisi – balki oʻz davrining buyuk faylasufi, shoiri, astronomi, meʼmori, matematigi boʻlgan. Ahmad Donishning toʻliq ismi- Ahmad Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanifiy as Siddiqiy al-Buxoriy boʻlgan. Koʻpgina manbalarda 1827-yilda tavallud topganliklari qayd etiladi. Ahmad Donish XIX asr Oʻrta Osiyo maʼrifatparvarlari orasida oʻziga xos faxrli oʻringa ega boʻlgan mashhur tarixiy siymo hisoblanadi. Shunday boʻlsa-da, Ahmad Donish hayoti, faoliyati nazarimda yurtimizda nisbatan oz oʻrganilgan va yetarlicha keng ommaga targʻib etilmagan, ammo har qancha maqtov lozim boʻlsa, shunga arziydigan shoir, olim, jamiyatshunos va faylasufdir. Buyuk tarixiy shaxslar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy-falsafiy hayotiga taʼsir qila oladilar, uni u yoki bu yoʻnalishga yoʻnaltira oladilar, taraqqiyotda maʼlum darajada oʻzgarishlar sodir boʻlishiga olib kela oladilar, aholi ijtimoiy fikriga maʼrifatparvarlik gʻoyalarini singdira oladilar. Ahmad Donish ibn Nosir (Donish—uning adabiy taxallusi) oʻz davrining buyuk allomalaridan biri edi. Buyuk orzusi qomusiy olim boʻlish istagi Ahmadni oʻtmish hamda oʻz davrining shoirlari, olimlari, sharq mutafakkirlarining asarlarini oʻrganishga turtki boʻldi. Madrasa taʼlimini olayotgan yosh Ahmad ota-onasiga zamona zayli bilan yuk boʻlmaslik maqsadida mashhur ilmiy asarlarni kitoblarni koʻchirish, kitob sahifalarini nozik did bilan bezash hamda hoshiyalash bilan bundan tashqari sheʼriy kitoblarni chiroyli mavzusiga mos yoʻsinda suratlar bilan ham jilo bergan bunday ishlari bilan ham shuhrat qozongan xattot boʻlgan edi. Ahmad Donish oʻsha davrlarda zamonasida mashhur sanalgan "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho" kabi el sevgan asarlari yana buning barobarida Mirzo Abdulqodir Bedilning asarlarini koʻchirib, ularni sotishdan keladigan foyda hisobiga yashash imkonini topadi. Uning bu haqidagi oʻz fikrlari ham yozib qoldirilgan boʻlib yaʼni "men darsdan boʻsh qoldim degancha, Bedilning bir oyda yigirma toʻrt, oʻttiz qismdan kitobini koʻchirardim" deb yozgan edi. Shu oʻrinda aytish kerakki, Donish faqatgina Bedilning emas balki Jaloliddin Rumiy, Gʻazzoliy, Jomiy va boshqa olimlarning fasafiy qarashlarini analiz qiladi. Uni malakali husnixat sohibi boʻlganligi sababli, mangʻit amirlari saroyida saroyning bosh mirzasiga ham aylanadi.

**2. Hunarmandchilik mehnatsevarlik, mavzusida.**

Ahmad Donish "Farzandlarga vasiyat, kasb va hunarning foydalari haqida" bobida yozishicha, har bir ota-ona farzandini ulg'aytirar ekan eng avvalo ularga ilm hamda mehnatni o'rgatmog'i lozimdir. Bunday haqiqatlarni hech kim inkor eta olmaydi. Bu hukmdan hech kim tashqari chiqa olmaydi. Otamiz davridan bugungacha biror kishi mashaqqatsiz rohat, mehnatsiz ne'mat ko'rgan bo'lsa edi, dunyo tarixida, biror yerda, biror kishi tomonidan uning belgisi yozilar edi. Har bir hunarmand o'z hunarini qilsa-yu, lekin bundan maqsadi xalqqa foyda yetkazish bo'lmasa, unday hunardan baraka topa olmaydi. To'qimachilar xalqni kiyintirish, oshpaz va nonvoylar ochlarni to'yg'azishni niyat qilsinlar. Agar shunday qilmasanglar dunyo va oxiratlariga ziyon yetkazgan bo'lasizlar. Ammo o'zlaring buni bilmay qolishlaring mumkin. Qolaversa, ulamo va hukamolardan ham bundaylarga tushunadiganlar kam topiladi. Har bir musulmon odam eng avval o'ziga zarur bo'lgan ilmlarni o'qishi farzdir. Shundan so'ng tirikchilik uchun biror kasb-hunar o'rganish lozim. Qaysi ilm va hunar kishining aqliga, ruhiga tarbiya berar ekan, unday ilm va hunar o'z egasini bu dunyoda ham, u dunyoda ham qo'llab-quvvatlaydi. Agarda ilm-fan va hunar ruhga tarbiya bermay, tanni semirtirib yuborsa, orzu-havasni, ko'paytirib, nafsi shaytonga yordam bergan bo'ladi. Ahmad Donish Buxoroda ilmni hamda ma'rifatni rivojlantirishi uchun fidokorlik qilar edi. Bu esa uning dunyoqarashi o'sib borganidan dalolat. U o'z uyida haftaning chorshanba, payshanba, juma kunlari shogirdlari va yaqinlarini to'plab suhbatlar o'tkazgan. She'rlar o'qishni tashkil qilgan. Bunday kechalarning tashkil qilinishi esa ayni paytda o'ta dolzarb hisoblanmish ustoz-shogird an'alarining davomi bo'lib xizmat qilgan. Davra suhbatlarida davlat ta'lim tizimini, boshqaruv sohasini o'zgartirish, yangicha boshqaruv hokimiyatini allaqachon kiritish vaqti kelganligi haqida ham so'z borardi. Ustoz va shogirdlik munosabatlari tarbiyaviy jarayon uchun juda muhim sanaladi. Bu borada J.Rumiy qarashlari[78-79b] hamda uni tahlil qilgan G.V.Izbullayevaning fikrlarini keltiramiz. Unga ko'ra, hozirgi zamonda o'quvchilarga tafakkur va ma'naviy qarashlarni shakllantirish jarayonida ustoz tomonidan o'quvchi qarashlariga sabrli bo'lish, shaxsning o'zi mustaqil qaror qabul qilishi, tolerantlik prinsipiga alohida urg'u berilib, uning pedagogik va didaktik g'oyalaridan foydalanish kerak. Rumiy qarashlariga ko'ra, o'quvchi (murid) qarashlari uchun ustoz (murshid) pozitsiyasi juda muhim hisoblanadi. Ustoz shogirdlik munosabatlarida mehr-muruvvatlilik katta-yu kichikni so'zini hurmat qilishdek muhim sifatleri Sadridin Ayniy tomonidan ham e'tirof qilinadi. Shunday bo'lsa ham Ayniy Donishni ko'rish va kuzatishdan, ayniqsa, Donishning Homidbek, Fayzbek, Qori Ne'mat va boshqa doimiy suhbatdoshlarining jonli hikoyalaridan olgan jonli taassurotlari, xususan ustoz asarlarini o'qish natijasida ko'p narsa o'rgangan va ma'naviy oziqlangan. O'sha davrning yirik ma'rifatparvarlari bo'lgan bu shaxs zamonasining chuqur ilmi me'mori-arxitektori ham bo'lgan. Ahmad Donishni hali madrasada tahsil ko'rayotgan davrlaridayoq otasi Mulla Nosir Buxorolik taniqli muhandis Bobome'mor huzuriga shogirdlikka olib boradi. Ahmad Donishning xotirlashicha, Bobome'mor vafot etgach, amir Nasrulloxon uni saroy bosh me'mori vazifasiga tayinlab, "Maxdum" unvonini beradi va 1000 dirhamlik oylik maosh belgilaydi. Shundan keyin Mirzo Ahmad Donish saroy qurilishida ishtirok etgan barcha muhandis va ustalar faoliyatiga rahbarlik qiladi. So'ngra amir elchilari tarkibida Sankt-Peterburgga safarga otlanadi. Donish elchilik sayohatlarida turli xil mamlakat uchun kerakli ma'lumotlarni o'rgandi va o'z yurtida tadbiq etilishini ham ta'minladi. Xususan, birinchi bo'lgan safari mobaynida uning asosiy Buxoro amirligiga Toshkent va Samarqand yerlarini qaytarish edi. Elchilar boshlig'i etib amir Mullojonni tayinlangan edi. U amirning merosxo'ri bo'lib, amirning otboshi vazifasini ham bajargan aqlli va zukko yigit bo'lgan. Ahmad Donishga Rossiyaning asosiy qonunlari, xalq hayoti, davlat tuzilishlarini o'rganib olib ular asosida taqdimotlar tayyorlab, amirning shaxsan o'ziga yetkazib turish yuklatilgan edi. Elchilarni poytaxt aholisi bilan tanishtirishda Qozon va Peterburg universitetlarining professori Aleksandr Qosimovich Kazembekning yordami katta bo'ldi. Uning kitobida "rus podshozodalarining muallimi" deb aytgan. Yozuvchining ikkinchi safari mobaynida asosiy maqsadi esa, Temuriylar poytaxti bo'lgan Samarqand va Shahrisabzga qarashli bo'lgan yerlarni Buxoro tarkibiga qaytarishga Russiyadan yordam so'rash hisoblangan.

**Xulosa.** Safarlari mobaynida Donish xalqimiz uchun yangi bir olamni kashf etar bunday yangiliklar yurtimizda ham bo'lishini shuningdek mehnatkash, qo'llari qadoq soddadil xalqimiz turmush tarziga yengilliklar berilishini chin dildan xohlar edi. Russiyada bir dasturxon atrofida o'tirib ovqatlanayotgan erkak va ayollarning nechog'lik tengligini ko'rib bizning ham yurtimizda bu odatlarni qo'llanishini zamonaviy til bilan aytganda gendr tengligi bo'lishini istardi, xulosa qilib aytadigan bo'lsak umuman olganda Ahmad Donish ijodida uning yozgan har bir asarlarida yoshlarni ezgulikka, hurlikka, Vatanparvarlikka chorlash bilan bir qatorda ayol va qizlarimizni o'qimishli, ziyoli manan hamda jismonan yetuk bo'lishlarini targ'ib qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Uning qarashlarida bugungi kun kelajak avlodning ham orzusidagi erk va mustaqillik nishonalarini ko'rishimiz mumkin. Vatanparvar, haqiqatpesha allomaning asarlarini o'rganish va tahlil qilish bugungi kundagi eng muhim vazifamizdan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoye" O'zbekiston fanlar akademiyasi Filosofiya va huquq instituti 1964y (37-46betlar)
- 2.Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe T.: Fan, 1964-365b.
- 3.Ahmad Donish. Risola yo muxtasare az ta'rixi saltanati xonadoni mangitiya. Dushanbe, 1992. - 95 b.
- 4.Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T: Universitet, 1999.
- 5.Hoji Muiniy. "Ahmad Donish hayoti haqida" 2007 y.(4-6b)
- 6.O'zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbat materiallari. 1998 yil 9 -oktabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998.
- 7.Sadriddin Ayniy "Esdaliklar". T.-5 -tom: 1965 25-b.
- 8.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 9.[www.google.uz](http://www.google.uz)
- 10.[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- 11.[www.iste'dod.uz](http://www.iste'dod.uz)